

MANZARALI DARAXTLARNING ASALARICHILIKDAGI O'RNI VA RO'LI TO'G'RISIDA.

Fargona davlat universiteti

Hamidov Gulom Xamidovich

Mahsudova Gulgora Muxammadjonovna

Usmanova Tursinoy Erkinovna

Abstract: The place of ornamental trees in cities and villages and beekeeping today is very large. When expanding beekeeping in a wide space and expanding the scale of various ornamental trees.

Keywords: city, tree, corn, climate, oaks, chinor, kuka, acacia, chestnut, hibiscus, gledichia, urine, poplar, poplar, arguvon, Japanese safora

Kirish: Mamlakatimiz shahar va kishloklarini ko'kalamzorlashtirish uchun eman, chinor, juka, akatsiya, kashtan, gibiskus, gledichiya, zarang, top, terak, arg'uvon, yapon saforasi va boshkalar muxim xisoblanadi. Mazkur daraxtlar ichida asalarilar uchun ozuka manbai hisoblangan turlari ham bor. Bunday o'simliklardan juka, kashtan, akatsiya, gledichiya, zarang, tol, terak, arguvon va saforalar ayniksa katta ahamiyatli hisoblanadi. Respublikamiz shahar va kishloklarini, yangi tashkil qilinayotgan tuman va madaniyat markazlarini kuklamzorlashtirishda yukorida bayon kilingan daraxtlardan foydalanish kerak. Oromgohlar, bog'lar va bekatlarni atroflariga shunday daraxtlar o'tkazilsa, bizning qanotli do'stlarimiz bo'lgan asalarilarga ham boy ozuka manbai yaratib bergen bulamiz.

Bunday maksadlar uchun ekilgan va ustirilayotgan buga va daraxtlar respublikamizda 250 dan ortik turdan iborat. Bular orasida kam tarkalgan va ajoyib manzarali turlar borki, ularni saklab kolish na muxofaza kilish kerak. Yashil dustlarimiz bo'lgan manzarali o'simliklarni asrash va muxofaza kilish keng jamoatchilikning vatanparvarlik burchi bo'lishi lozim.

Juka. Juka Yevropa mamlakatlarida keng tarqalgan va axamiyati jixatdan xam eng yukori turadigan o'simlik hisoblanadi. Asalarilarga maxsulot, ya'ni ko'p asal beradigan usimliklar orasida bu daraxtlar birinchi o'rinni egallaydi. Mayda bargli jukadan tashqari Manjuriya va Amur jukalari xam keng tarkalgan bo'lib, bular asalarichilikda juda kimmatlri ozuka manbayi xisoblanadi. Eng kup jukali o'rmonlar Boshqirdiston va Tataristonda uchraydi. Ob-havo va iklim sharoiti kulay bo'lgan yillari jukalar juda kup gulshira ajratadi. Bunday vaktlarda xar bir asalari oilalari 10-15 kilogrammlab shira to'playdi. Shu o'rmonlarda joylashtirigan asalari oilalari yoz faslida 50-60 kilogramm va undan ham ortik asal yig'adi. Kalin tarkalgan jukazorlarning xar gektaridan 700-800 kilogrammgacha shira olish mumkin.

Toshkent, Samarkand, Fargona kabi shaharlarda ham juka keng tarkalgan. Bizda jukalarning 7 turi o'sishi kayd kilingan. Ulardan 2-3 turlarigina kup tarkalgan. Ular iyun oylarida gullaydi. Har bir guli 0,20 dan 2-3 milligrammaga shira ajratadi. Shiradagi shakar mikdori 30 dan 55% gacha. Jukadan olingan asal esa shirinligi va sifati jihatdan birinchi o'rinda turadi. Shuning uchun ham respublikamizda juka daraxtini yanada ko'paytirish, mazkur jukazorlardan esa o'z vaktida unumli foydalanish lozim.

Soxtakashtan. Soxtakashtan 10-15 metr baland bo'lib, shu nomli oilaga mansub. U chiroli manzarali daraxt. Soxtakashtan, ayniksa Toshkent va Samarkand shaxarlarida kup uchraydi. Faqat uning bir turi aprel may oylarida gullaydi. Gullagan paytida asalarilarni ko'plab o'ziga jalb kiladi.

Akatsiya. Akatsiya avlodiga bir necha daraxt va darxchalar kirib, ular Dukkakdoshlar oilasiga kiradi. Akatsiya ham lipa va kashtanlarga o'xshab, asalarichilikda muhim o'rinni egallaydi. Bazibir G'arbiy Yevropa mamlakatlarida akatsiyadan juda kup asal olinadi. Bizning mamlakatimizda akatsiyaning ayrim turlari keng tarkalgan, ular boshka o'simliklar bilan birgalikda asalarilarga Tovar maxsulot beradi. Akatsiya kalin ekilgan maydonlarning har bir gektaridan 500-800 kilogrammaga gulshira yigib olish mumkin.

Respublikamizda akatsiyaning 4 turi tarqalgan ularning hammasi ilgarigi manzarali daraxtlar katori shahar va shaxar tipidagi pasyolkalarda kup uchraydi. Serquyosh o'l kamizda oddiy akatsiya yoki ok akatsiya deb yuritiladigan turi eng ko'p tarqalgan. Shunisi xarakterliki, bu tur akatsiya togli tumanlarda ham keng tarkalgan. U urugidan yaxshi ko'payadi, shuning uchun akatsiyalarda tabiiy tiklanish ham yaxshi.

Togli tumanlarimizda daraxtsiz tog yonbag'irlarini o'zlashtirish ularni o'rmonzorlar holiga keltirishda akatsiyadan keng foydalaniladi. Bunga misol kilib Samarkand viloyatining Urgut tumani atrofidagi tog'li joylarni ko'rsatish mumkin. Eng kup akatsiyazorlar Omonqo'ton tog'larida (Zarafshon toqlarida) uchraydi.

Voxa va pasttekisliklarda akatsiya aprel oyida, tog'li tumanlarda esa mayda gullaydi. Akatsiya gullagan paytda o'tkir yokimli xid taratadi. Asalarilar esa ertadan kechgacha ulardan asal to'playdilar. Har bir akatsiya guli o'z xayoti davomida 0,15-0,20 milligramm gulshira ajratadi. Shiradagi shakar moddasi 34-45% tashkil kiladi.

Tuxumak (Yapon saforasi). Tuxumak 8 - 10 metrlar chamasi baland bo'lib o'sadigan dukkakdoshlar oilasiga mansub daraxt. Bu manzarali daraxt respublikamizda ko'p o'stiriladi. Ushbu turning Xarakterli xususiyati shundaki, u boshqa daraxtlardan farqli o'laroq kechrok gullaydi. Asalarilarga kuplab gulshira va gulchangi beradi. Har bir guldag'i shira mikdori 0,10-0,15 milligramm, shakar moddasi esa shiraning 35-40% tashkil kiladi.

Zarang. Zaranglar 10-15 metr balandlikdagi daraxtlar va daraxtchalar xisblanadi. Ular zarangdoshlar oilasiga mansub bo‘lib, gullari mayda bo‘lishiga karamay asalarilarga ko‘p gulchangi va shira beradi.

Zarangni respublikamizda 10ta turi kayd kilingan. Ularning ba’zilari madaniy xolda shahar va posyolkalarda o‘stirilsa, ba’zilari tog‘li tumanlarda yovvoyi xolda xam uchraydi. Zarang aprel-may oylarida gullaydi.

Tol. Tollar eng ko‘p tarqalgan va asalarichilkda muhim ahamiyatga ega bulgan daraxtlardan hisoblanadi. Daraxtlar orasida gollar avlodni eng katta xisoblanib, ularning juda ko‘p turlari bor. Bu juda katta avlodning ichida daraxt va butalari xam bo‘lib, ular ham amdaniy, xam yovvoyi xolda uchraydilar. Respublikamizda madaniy xolda, ya’ni o‘stiriladigan tol turlaridan 8 tasi borligi aniklangan. Ma’lumki, tol erta baxorda gullaydi (aprel-mayda) va asalarilar uchun dastlabki gulshira va gulchangi beradi. O‘rta hisobda barcha tollarning turlarini xar bir guli 0,02 dan 0,08 milligrammgacha gulshira ajratadi. Gulshiradagi shakar moddasining mikdori 25 dan 35% gacha. Tollar erta baxordagi va asalarilarni ozuka bilan ta’minlovchi muxim o‘simpliklar xisoblanadi.

Terak. Terak xam tollar kabi shu nomli oilaga kiruvchi daraxtchil o‘simpliklar xisoblanadi. Bu avlodga xam bir necha turlar kiradi, ularning orasida madaniylari, xam yovvoyi holda uchrovchilari bor. Terak yovvoyi holda tollar kabi togli tumanlarda uchroaydi. Ular ayniksa soy va daryo buylarida kup uchroaydi va alovida usimliklar formatsiyalari xosil kiladi.

Terak xam tollar singari asalarilarga xam gulchangi, xam gulshira beradi.

Uchkat (mili). Uchkat uncha baland bo‘lmagan darxachi koi buga xisoblanib, shu nom bilan ataluvchi oilaga kiradi. Ilgarigi avlodlar singari buga chari orasida xam madaniy turlari, ki alohida manzarai sifatida ustiriladigan hamda togli tumanlarda esa sazoyi xolda uchr turlari mavjud. O‘zbekistonda uchkatning 6 turi madaniy xolda shaxar poselkalarda, parklarda, alasalarning atroflarida keng tarkalgan. Yelnoyi koleda usuvchi uchkatlarning har bir guli sutkasiga 0,10-0,16 miligramm sura argan. Uchkatlar avlodiga kiruvchi barcha turlarning asalarilar suka bilan ta’minalashdagi ahamiyati katta. Biz manzarali daraxtlarning ayrim turlarigina ta’riflab o‘tdik. Aslida esa bunday o‘simpliklar ko‘p, ularning barchasidan asalarichilikda foydalanish kerak

Xulosa: O‘zbekiston shariotida asalarichilikning oziqa bazasini tabiiy floramiz, poliz ekanlari manzarali daraxtlar tashkil etadi, ulardan o‘z vaqtida samalari foydalanish kerak,

Shaxa rva qishloklar atrofida manzarali daraxtlarni keng ko‘lamda kupaytirish va samaradorligini oshirishga bir qator chora tadbirlar ko‘rish kerak.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning farmoni "Ekologiya va atrof muhitni muhofaza kilish sohasida davlat boshkaruvi tizimini takomillashtirish to‘g‘risidagi PF 5024 sonli karori, 21-aprel 2017 yil.

2. Kuliyev A.M Zadachi izucheniya medonosnix i perganosnix rasteniy. Moskva, 1952 g.
3. Lezenseva YE.K. O metodiki opredeleniya nektaroproduktivnosti rasteniy. Jurnal «Pchelovodstvo» 1954 № 11, str. 39-45 4.Kopelkiyevskiy G.V. Utochnit normi i Metodi opredeleniya nektaroproduktivnosti rasteniy. Jurnal «Pchelovodstvo» 1954 №11 STR. 43-45
4. Ponomareva YE.T Opredeleniya medonostnosti pchelichnih pastbish Jurnal «Pchelovodstvo» 1970 №4, str. 96-102.
5. Hamidov, G., Makhsudov, K., & Makhsudova, G. (2021, July). ON TaYE PROCESS OF NECTAR SEPARATION OF MEDIUM-FIBER COTTON VARIETIES IN TaYE FERGANA VALLEY. In Konferensii.
6. Gulnoraxon, M. (2023). FARG'ONA VODIYSI AHOLISINING TABIATDAN TEJAMLI FAYDALANISH AN'ANALARI. Journal of new century innovations, 20(4), 8-13.
7. Mukhammadjonovna, M. G. (2023). Formation of Ecological Consciousness in Education. Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 16, 1-3.
8. Abdullaeva, Maqsuda Tulanovna, Tursunoy Erkinovna Usmonova, and Hayitali Ergashalievich Inomov. "Influence of number of seedlings and amount of fertilizers on the development of root system of winter wheat." *Asian Journal of Multidimensional Research* 10.10 (2021): 805-809.
9. Abdullaeva, M. T., Usmonova, T. E., & Inomov, H. E. (2021). Influence of number of seedlings and amount of fertilizers on the development of root system of winter wheat. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(10), 805-809.
10. Maxsudov Sherzod Solijonovich THE INFLUENCE OF MACRO ENVIRONMENTAL FACTORS ON THE DEVELOPMENT OF FREE ECONOMIC ZONES International Journal of Studies in Business Management, Economics and Strategies Volume 02, Issue 04, April, 2023. 21-26